

SHAXS SHA'NI VA QADR-QIMMATI TUSHUNCHASINING HUQUQIY VA FALSAFIY TAHLILI

To'xtayeva Aziza Dusmuratovna

Toshkent davlat yuridik universiteti, magistrant.

e-mail: atukhtaeva03@mail.ru +99894-001-04-31

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19588574>

Annotatsiya. Mazkur maqolada inson sha'ni va qadr-qimmatini tushunchasining huquqiy va falsafiy asoslari, ularning zamonaviy jamiyatdagi ahamiyati tahlil qilingan. Shuningdek, texnologik taraqqiyot, xususan internet va ijtimoiy tarmoqlar rivoji natijasida shaxsiy ma'lumotlarni noqonuniy oshkor qilish bilan bog'liq muammolar yoritilgan. O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi, jumladan Jinoyat kodeksining 141³-moddasi hamda "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi Qonun asosida mazkur sohadagi huquqiy mexanizmlar tahlil qilingan.

Аннотация. В данной статье анализируются правовые и философские основы понятий чести и достоинства личности, а также их значение в современном обществе.

Особое внимание уделяется проблемам, связанным с незаконным распространением персональных данных в условиях развития интернета и социальных сетей. Рассматриваются нормы законодательства Республики Узбекистан, в частности статья 141³ Уголовного кодекса и Закон «О персональных данных».

Abstract. This article examines the legal and philosophical foundations of the concepts of human honor and dignity, as well as their significance in modern society. It highlights issues related to the unlawful disclosure of personal data in the context of rapid technological development, including the spread of the internet and social media. The study analyzes the legal framework of the Republic of Uzbekistan, particularly Article 141³ of the Criminal Code and the Law "On Personal Data."

Kalit so'zlar: inson sha'ni, qadr-qimmat, shaxsiy hayot daxlsizligi, shaxsga doir ma'lumotlar, Jinoyat kodeksi 141³-moddasi, axborot xavfsizligi, ijtimoiy tarmoqlar, deepfake, sun'iy intellekt, huquqiy himoya.

Ключевые слова: честь и достоинство личности, неприкосновенность частной жизни, персональные данные, статья 141³ Уголовного кодекса, информационная безопасность, социальные сети, deepfake, искусственный интеллект, правовая защита.

Keywords: human honor, dignity, privacy, personal data, Article 141³ of the Criminal Code, information security, social media, deepfake, artificial intelligence, legal protection.

Inson sha'ni va qadr-qimmatini – bu insoniyatning eng yuksak ma'naviy va huquqiy qadriyatlaridan biridir. Har qanday demokratik jamiyatda, ayniqsa huquqiy davlat barpo etishga intilayotgan O'zbekiston Respublikasida, har bir fuqaroning shaxsiy daxlsizligini ta'minlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sanaladi. Aynan shu qadriyatlar ustiga huquq, erkinlik va ijtimoiy adolat barpo etiladi.

Bugungi kunda texnologik taraqqiyot, internet va ijtimoiy tarmoqlarning keng tarqalishi inson hayotining deyarli barcha jabhalariga ta'sir ko'rsatmoqda. Afsuski, bu rivojlanish bilan bir qatorda, shaxsga oid sir tutilishi lozim bo'lgan ma'lumotlarning, xususan, roziliksiz foto va videotasvirlarning oshkor qilinishi kabi salbiy holatlar ham ko'paymoqda. Bu holat, ayniqsa, ayollar, voyaga yetmaganlar va himoyaga muhtoj shaxslar sha'ni va qadr-qimmatining toptalishiga olib kelmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2021-yil 29-dekabrda parlamentga murojaatida quyidagicha fikr bildirgan edi: **“Inson sha’ni, qadr-qimmatini e’zozlash – Yangi O‘zbekistonning bosh g‘oyasidir. Bu oddiy gap emas, balki – qonunchiligimizning har bir bandida, amaliyotimizda o‘z aksini topishi zarur”**¹.

Mazkur yo‘nalish, 2022–2026 yillarga mo‘ljallangan “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”da va 2030-yilgacha bo‘lgan “Inson huquqlarini ta‘minlash strategiyasi”da ham bevosita mustahkamlangan. Xususan, 2030-yil strategiyasida raqamli xavfsizlik, ayollar va bolalar huquqlarini himoya qilish, shaxsiy ma‘lumotlar bilan bog‘liq jinoyatlarga qarshi kurashish bo‘yicha alohida vazifalar belgilanmoqda².

Jahon tajribasida ham shaxsga oid maxfiy ma‘lumotlarni oshkor qilish orqali sha’ni va qadr-qimmatga tajovuz qilish holatlari keng muhokama qilinmoqda.

Masalan, AQShda “revenge porn” deb nomlangan harakatlar uchun ayrim shtatlarda alohida qonunchilik mavjud. Bu kabi tajribalar O‘zbekiston qonunchiligi uchun ham turtki bo‘lib xizmat qilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 141³moddasi – “Shaxsning sha’ni va qadr-qimmatini kamsituvchi hamda shaxsiy hayotining sir tutiladigan tomonlarini aks ettiruvchi ma‘lumotlarni tarqatish” jinoyatini belgilab bergani bilan muhim bir bosqich bo‘ldi.

Ayniqsa, jinsiy mazmundagi materiallarni roziliksiz tarqatish holatlarining soni ortib borayotgan bir vaqtda, mazkur norma ayollar huquqlarini real himoya qilishda huquqiy asos bo‘lib xizmat qilmoqda. 2023-yilda faqat ijtimoiy tarmoqlarda tarqalgan bunday holatlar bo‘yicha Ichki ishlar organlariga **800 dan ortiq** murojaat kelib tushgan. Biroq bu jinoyatning subyektiv va obyektiv tomonlarini aniqlash, sud amaliyoti va jinoyat tarkibidagi noaniqliklar hali-hanuz ilmiy va amaliy muhokamaga muhtojdir.

Shuningdek, jinoyat tarkibining zamonaviy texnologiyalar (masalan, deepfake, AI orqali montajlangan materiallar) bilan bog‘liqligi, bu sohadagi qonunbuzarliklarga qarshi kurashishda mutlaqo yangi yondashuvlarni talab qilmoqda.

Mazkur bitiruv malakaviy ishining dolzarbligi shundaki, u nafaqat amaldagi Jinoyat kodeksining 141³-moddasini tahlil qiladi, balki xorijiy davlatlar tajribasini o‘rganish, sud-amaliy va psixologik yondashuvlar asosida jinoyat tarkibini chuqur tahlil qilish, zamonaviy xavflar fonida milliy qonunchilikni takomillashtirish bo‘yicha aniq va asosli takliflar berishga yo‘naltirilgan. Huquqiy demokratik davlat va adolatli fuqarolik jamiyatining asosiy jihatlaridan biri bu har bir insonning sha’ni va qadr-qimmatini oliy qadriyat darajasiga ko‘tarilganidir.

Har bir shaxs o‘z hayotini o‘zi xohlagancha quradi. Shu bilan birga u boshqalarga zarar yetkazmasligi, qonunlarga hurmat asosida, undan chetga chiqmay yashashi, foydali mehnat bilan shug‘ullanishi zarur. Insonlarning sha’ni va obro‘sigacha putur yetkazuvchi har qanday harakat ta‘qiqlanadi.

Biror bir harakat natijasida insonning sha’ni va qadr-qimmatiga zarar yetsa, unga nisbatan qonunda belgilangan tartibda tegishli choralar ko‘riladi. Qolaversa, yangilangan Bosh qomusimizda inson qadri va manfaati uchun xizmat qiladigan normalar avvalgisidan 3 baravarga ko‘payganini ko‘rishimiz mumkin².

¹ Shavkat Mirziyoyev. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. Oliy Majlisga Murojaatnoma, 29-dekabr 2021-yil. ² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni (2022). 2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida. 2022-yil 28-yanvar, PF–60-son.

² Inagomova M.M.. Konstitutsiyaviy islohotlardan inson-jamiyat-davlat masalalarining rivojlanish bosqichlari / “O‘zbekiston Respublikasi konstitutsiyasi – inson qadri ulug‘lash, erkin va farovon hayotimiz kafolati” mavzusidagi ilmiy amaliy konferensiya. – Toshkent. Republican Scientific and Practical Conference. B. 59-64. , 2023

Inson sha'ni va qadr-qimmatini har qanday demokratik jamiyatning asosiy qadriyatlaridan biri bo'lib, shaxsiy erkinlik, daxlsizlik va huquqiy himoya tamoyillarini belgilaydi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 13-moddasida inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni va qadr-qimmatini oliy qadriyat sifatida e'tirof etilgan. "Sha'n" insonning jamiyatdagi obro'si, shaxsiy qadr-qimmatini va o'zini hurmat qilish huquqi bilan chambarchas bog'liq tushunchadir. "Qadr-qimmat" esa bu shaxsning o'zini qadrlashi, ijtimoiy jamiyat tomonidan tan olinadigan axloqiy, ruhiy va huquqiy maqomi hisoblanadi.

Huquqiy nuqtai nazardan, sha'n va qadr-qimmat shaxsning jamiyatdagi maqomi, obro'e'tibori va inson sifatida hurmatga sazovorligini anglatadi. Bu tushunchalar xalqaro huquqiy hujjatlarda ham mustahkamlangan. Masalan, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 1-moddasida barcha insonlar erkin, sha'n va huquqlarda teng bo'lib tug'ilishi ta'kidlangan.

Yevropa inson huquqlari konvensiyasi ham shaxsning sha'nini himoya qilishni asosiy tamoyil sifatida belgilaydi.

O'zbekiston Respublikasining "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi Qonuni shaxsiy hayot daxlsizligini ta'minlashda muhim huquqiy asos bo'lib xizmat qiladi. Ushbu qonun shaxsga doir ma'lumotlarni yig'ish, saqlash va tarqatishda shaxsning roziligini olish zarurligini belgilaydi. Ushbu qonunning 4-moddasiga ko'ra, shaxsga doir ma'lumotlar bu – muayyan jismoniy shaxsga talluqli bo'lgan yoki uni identifikatsiya qilish imkonini beradigan, elektron tarzda qog'ozda va boshqa moddiy jismda qayd etilgan ma'lumot hisoblanadi³. Bundan tashqari, Jinoyat kodeksining 141³-moddasi shaxsning sha'ni va qadr-qimmatini kamsituvchi ma'lumotlarni oshkor qilishni jinoyat deb belgilaydi. Ushbu modda dispozitsiyasiga ko'ra shaxsning sha'ni va qadr-qimmatini kamsituvchi ma'lumotlar sifatida shaxs tanasining yoki jinsiy a'zolarining yalang'och holdagi foto va videotasvirini o'z ichiga olgan axborot nazarda tutilgan.

Sha'n va qadr-qimmat nafaqat huquqiy normalarda, balki falsafiy, axloqiy va ijtimoiy meyorlarda ham o'z aksini topgan. Falsafiy nuqtai nazardan, sha'n va qadr-qimmat insonning ichki dunyosi, o'zini anglash va o'z-o'zini hurmat qilish kabi tushunchalar bilan bog'liq. Bu qadriyatlar insonning jamiyatdagi o'rni va uning boshqa shaxslar bilan munosabatlarini belgilaydi, shu bilan birga ushbu tushuncha inson tabiatining ajralmas qismi sifatida qaraladi.

Insonni boshqa mavjudotlardan farqlovchi asosiy belgilardan biri bu - uning ong va aql-zakovatga ega ekanligi, o'z mavjudligini anglash va boshqalarning sha'n va qadr qimmatiga hurmat bilan munosabatda bo'lish qobiliyatidir. Shu sababli jamiyat va davlat har bir insonning sha'ni va qadr qimmatini himoya qilish va uni kamsitilishdan asrashi shart.

Falsafiy yondashuvda sha'n va qadr-qimmat insonning jamiyatdagi axloqiy, ruhiy va ijtimoiy mavqei sifatida talqin qilinadi. Bu tushuncha faqat moddiy qadriyat emas, balki ma'naviy va axloqiy qadriyat hamdir.

Inson sha'ni - bu uning shaxsiylikini, hayot falsafasini, axloqiy dunyoqarashini va jamiyatda tutgan o'rnini belgilovchi jihat.

Sha'nning poymol qilinishi inson ruhiyatida jiddiy salbiy oqibatlariga olib kelishi, uning ijtimoiy hayotga, davlat va jamiyatga bo'lgan ishonchiga putur yetkazishi mumkin. Falsafiy yondashuvda sha'n va qadr-qimmat insonning erkinligi, mas'uliyati va axloqiy qarorlar qabul qilish qobiliyati bilan chambarchas bog'liq.

³ "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risidagi qonun" ,. – 4-modda. Lex.uz

Xususan, belgiyalik olim, statist va sotsiolog **Jak Kettel** o‘zining “Inson va uning qobiliyatlarini rivojlantirish haqida risola” asarida, “inson jamiyatdagi hurmat va qadr individual sha’n uchun eng kuchli kafolatdir” deya ta’kidlagan⁴.

U ushbu asari orqali inson sha’ni va qadr-qimmatini jamiyatning nafaqat axloqiy balki huquqiy rivojlanishi bilan chambarchas bog‘liqligini ko‘rsatgan. Ya’ni inson sha’ni va qadr-qimmatini ijtimoiy jarayon va madaniy qadriyatlarining natijasidir. Shu bilan bir qatorda ingliz faylasufi Jon Lokk ham insonning tabiiy huquqlari haqida gapirar ekan, har bir inson tug‘ilishi bilan hayot, erkinlik va mulk huquqlariga ega ekanligini ta’kidlagan⁵.

Unga ko‘ra, inson o‘z sha’ni va qadr-qimmatini himoya qilish huquqiga tabiatan ega bo‘lib, bu huquq jamiyat va davlat tomonidan kafolatlanmog‘i zarur. Jon Lokk “Inson va aql-idrok haqida risola” asarida insonni ong va tafakkur egasi, muqaddas shaxs sifatida baholaydi va hech bir inson boshqa shaxs tomonidan kamsitilishi yoki sha’niga tajovuz qilinishi mumkin emasligini uqtiradi.

Sha’n va qadr-qimmat tushunchalari huquqiy va falsafiy yondashuvlarda muhim o‘rin tutadi. Falsafiy va huquqiy yondashuvlar bir-birini to‘ldirib, inson sha’ni va qadr-qimmatini to‘liq himoya qilishning asosi hisoblanadi. Huquqiy jihatdan, bu tushunchalar shaxsning huquq va erkinliklarini himoya qilishda asosiy mezon bo‘lsa, falsafiy jihatdan, insonning o‘zini anglash va jamiyatdagi o‘rnini belgilashda muhim rol o‘ynaydi.

Bugungi globallashuv va raqamli jamiyat sharoitida bu qadriyatning ahamiyati yanada oshib, uni huquqiy texnologik jihatdan mukammal himoyalash zarurati yuzaga chiqmoqda.

O‘zbekiston Respublikasining qonunchiligi va xalqaro huquqiy hujjatlar bu qadriyatlarni himoya qilishga qaratilgan bo‘lib, shaxsning sha’ni va qadr-qimmatini ta’minlashda muhim asos bo‘lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOLAR:

1. Shavkat Mirziyoyev. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. Oliy Majlisga Murojaatnoma, 29-dekabr 2021-yil. ² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni (2022). 2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida. 2022-yil 28-yanvar, PF–60-son.
2. Inagamova M.M. Konstitutsiyaviy islohotlardan inson-jamiyat-davlat masalalarining rivojlanish bosqichlari / “O‘zbekiston Respublikasi konstitutsiyasi – inson qadrini ulug‘lash, erkin va farovon hayotimiz kafolati” mavzusidagi ilmiy amaliy konferensiya. – Toshkent. Republican Scientific and Practical Conference. B. 59-64. , 2023
3. “Shaxsga doir ma’lumotlar to‘g‘risidagi qonun” ,. – 4-modda. Lex.uz
4. Lambert Adol’f Jak Kettel – belgiyalik olim, sotsiolog, statistik. “Inson va uning qobiliyatlarini rivojlantirish haqida risola” asari muallifi
5. Locke J. An Essay Concerning Human Understanding. – P.134. London: T.Tegg and Son. 1836. -539 p

⁴ Lambert Adol’f Jak Kettel – belgiyalik olim, sotsiolog, statistik. “Inson va uning qobiliyatlarini rivojlantirish haqida risola” asari muallifi

⁵ Locke J. An Essay Concerning Human Understanding. – P.134. London: T.Tegg and Son. 1836. -539 p